



**TIJORAT BANKLARIDA CHET EL VALYUTASIDAGI KREDIT
QARZDORLIKLARINI UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Raxmanov Ulug'bek Abduvalixodjayeich

*“O‘zmilliybank” AJ Buxgalteriya hisobi
va moliyaviy menejment departamenti
+998933868802 Urahmanov@nbu.uz*

Annotatsiya

Tijorat banklari faoliyatida kredit portfeli sifatini ta'minlash va muddati o'tgan qarzdorliklarni samarali undirish bank tizimi barqarorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, chet el valyutasida ajratilgan kreditlar bo'yicha to'lov intizomining buzilishi banklarning likvidligi va moliyaviy barqarorligiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotda chet el valyutasidagi kredit qarzdorliklarini undirish jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish asosida takomillashtirish modeli ishlab chiqildi. Taklif etilgan yondashuv bank operatsiyalarida inson omilini kamaytirish, operatsion xatolarni minimallashtirish hamda hisob-kitob jarayonlarining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil hamda bank axborot tizimlarini modellashtirish usullaridan foydalanildi. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida 2-son kartoteka mexanizmi va avtomatik valyuta konvertatsiyasi jarayonlari o'rganildi va takomillashtirilgan model ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: *Kredit, muddati o'tgan qarzdorlik, akseptsiz to'lov talabnomasi, 2-son kartoteka, valyuta konvertatsiyasi, avtomatlashtirish, bank axborot tizimi.*

Asosiy qism

Tijorat banklarida chet el valyutasida ajratilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklarni o'z vaqtida undirish bank aktivlari sifatini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Amaliyotda mijozlar tomonidan kredit shartnomalarida belgilangan to'lov majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilmasligi natijasida muammoli qarzdorliklar shakllanadi.

Taklif etilayotgan modelga ko'ra, qarzdorlikni undirish jarayoni bankning avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Mijozning xorijiy valyutadagi hisobvarag'ida yetarli mablag' mavjud bo'lmagan holatlarda, tizim avtomatik ravishda akseptsiz elektron to'lov talabnomasini shakllantiradi va uni 2-son kartotekaga kiritadi.

Keyingi bosqichda mijozning milliy valyutadagi hisobvarag'idan mablag' yechib olinadi va Markaziy bankning amaldagi rasmiy kursi asosida avtomatik konvertatsiya qilinadi. Ushbu jarayon real vaqt rejimida amalga oshirilib, qarzdorlikni tegishli chet el valyutasida qoplash imkonini beradi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Taklif etilgan modelning asosiy innovatsion jihati shundan iboratki, unda qarzdorlikni undirish jarayonlari to'liq avtomatlashtirilgan bo'lib, bank ichki tizimlari va banklararo to'lov infratuzilmasi bilan integratsiyalashgan holda ishlaydi.

Xulosa

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan avtomatlashtirilgan model tijorat banklarida chet el valyutasidagi kredit qarzdorliklarini undirish jarayonlarini sezilarli darajada optimallashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv operatsion samaradorlikni oshiradi, inson omilini kamaytiradi hamda bank operatsiyalarining shaffofligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
2. "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma", 2012 yil 15 mart, №2342
3. "Naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi Nizom", 2020 yil 13 aprel, №3229
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Tijorat banklari uchun hisobvaraqlar rejasi", 2021 yil 26 noyabr, №3336